



BAZEL STANDARTLARI ASOSIDA TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Ashurov A.R.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya.. Tezisdagi tijorat banklarida kredit risklarini boshqarishning xalqaro amaliyoti va Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan standartlarning ahamiyati tahlil qilingan. Bazel I, Bazel II va Bazel III standartlarining kredit risklarini baholash, kapital yetarliligi, riskka tortilgan aktivlarni hisoblash, ichki reyting tizimlari, stress-testlar hamda kutilayotgan kredit yo'qotishlarini baholash bo'yicha talablari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston tijorat banklari kredit portfelining tarmoqlar kesimidagi tarkibi tahlil qilinib, kredit risklarini samarali boshqarish va kredit portfeli sifatini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: Bazel qo'mitasi, Bazel III, kredit riski, kredit portfeli, kapital yetarliligi, riskka tortilgan aktivlar, ichki reyting tizimi, stress-test, ECL, IFRS 9, tijorat banklari, risk-menejment.

Kredit riski banklar faoliyatidagi asosiy risk turlaridan biri bo'lib, uning samarali boshqarilishi banklarning moliyaviy barqarorligi, likvidligi va daromadlilikini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shu bois xalqaro bank amaliyotida kredit risklarini baholash va boshqarish bo'yicha yagona yondashuvlarni shakllantirishga qaratilgan Bazel qo'mitasi standartlari keng qo'llanilmoqda.



Bazel I, Bazel II va Bazel III standartlarida kredit risklarini baholash, kapital yetarliligi, riskka tortilgan aktivlarni hisoblash, ichki reyting tizimlarini joriy etish, stress-testlar o'tkazish hamda kutilayotgan kredit yo'qotishlarini baholash bo'yicha zamonaviy talablar belgilangan. Mazkur talablarni milliy bank amaliyotiga bosqichma-bosqich tatbiq etish kredit portfeli sifatini oshirish, muammoli kreditlar ulushini kamaytirish va bank tizimining barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan Bazel standartlari asosida tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish tizimini tahlil qilish, uning asosiy talablarini o'rganish hamda milliy bank amaliyotida qo'llash imkoniyatlarini baholash dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tijorat banklarida kredit risklarini xalqaro miqyosda boshqarish tizimi moliyaviy inqirozlar ta'sirida doimiy ravishda takomillashib bormoqda. Bugungi kunda rivojlangan davlatlar bank amaliyotida risklarni boshqarish shunchaki zaxira shakllantirish emas, balki oldindan prognoz qiluvchi (forward-looking) matematik modellar va qat'iy regulyatorlik talablari ustiga qurilgan.

Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro standartlar banklarda kredit risklarini samarali boshqarishning asosiy mezonlarini belgilaydi. Unga ko'ra, kredit risklarini boshqarishda qarz oluvchining kreditga layoqatliligini kompleks baholash, risk darajasiga qarab kapital yetarliligini ta'minlash, kredit portfelini diversifikatsiya qilish va kutilayotgan kredit yo'qotishlarini (Expected Credit Loss – ECL) o'z vaqtida baholash muhim hisoblanadi.

Bazel III talablariga muvofiq, banklar kredit risklarini baholashda ichki reyting tizimlari, stress-test sinovlari va riskka asoslangan yondashuvlarni qo'llashi lozim. Bu esa muammoli kreditlar ulushini kamaytirish, kredit portfeli sifatini yaxshilash va bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.





Shuningdek, Bazel standartlarini milliy bank amaliyotiga samarali tatbiq etish mijozlarning moliyaviy holatini aniq baholash, kredit qarorlarining sifatini oshirish va risklarni erta aniqlash imkonini beradi.

Bank risklarini boshqarish, ularni samarali tashkil etish bo'yicha Bank nazorati bo'yicha Xalqaro Bazel qo'mitasi tegishli standartlar ishlab chiqqan va tavsiyalarni shakllantirgan.

Bazel I standartida asosan kredit riski va kapitalga talablar shakllantirilgan, aktivlar risklilik darajasi bo'yicha tasniflangan.

Bazel II standarti esa oldingi standartni to'ldiradi, unga yangi bo'lgan bir qator talablarni kiritadi. Xususan, banklarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan operatsion risk va bozor riskini qamrab oladi. Bundan tashqari kapital talablari, nazoart mexanizmi va shaffoflikni ta'minlashi lozimligi ko'rsatiladi.

Bazel III talablarida esa oldingi standartlarni to'ldirgan holda kapital talablari kuchaytiriladi, ya'ni kapitalning yetarlilik darajasi oshiriladi, likvidlilik standartlari joriy qilinadi. Shuningdek, foiz stavkalari va bozor riskini baholashni nazarda tutadi hamda ularni baholash bo'yicha tartiblar ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, tizimli risklar tushunchasi va moliyaviy institutlarning ustuvorligi (Too big to fail) kabi yangi normalar kiritiladi.

Quyida Bazel qo'mitasida keltirilgan risklar bo'yicha talablarni tahlil qilamiz.

Bazel II standartida kapital yetarliligini hisoblashda aktivlarning riskka tortilganlik darajasini aniqlashda talablar qaysi kontragentga tegishliligiga qarab turli risk darajalari qo'llaniladi:

1-jadval

Hukumatga va uning markaziy bankiga bo'lgan talablar¹

Kredit reytingi	AAA – AA-	A+ — A-	BBB+ - BBB-	BB+ — B-	B- dan past	yo'q
Risk darajasi	0%	20%	50%	100%	150%	100%

Banklarga bo'lgan talablar ular joylashgan davlatga bo'lgan talablarga tenglashtiriladi.

Korporatsiyalarga bo'lgan talablar, shu jumladan sug'urta kompaniyalariga bo'lgan talablar 100% riskka tortiladi. Ammo, standartga binoan ma'lum reytingga ega bo'lgan korporatsiyalarga talablar riskka tortilishi mumkin. (1.2-jadval)

Agar nazorat organlari ruxsat berishsa, banklar reyting klassifikatsiyalariga qaramasdan barcha korporatsiyalarga oid talablar uchun 100%li risk darajasini qo'llashlari ham mumkin.

Regulyativ chakana talablar – regulyativ kapitalni hisoblash maqsadida ushbu talablar jismoniy shaxslarga, ularning guruhlariga yoki kichik tadbirkorlarga bo'lgan talablar sifatida qaraladi hamda ularga nisbatan risk darajasi 75% qilib belgilanadi. Nazorat organlari mamlakatdagi mavjud holatdan kelib chiqqan holda ushbu talablarga nisbatan risk darajasini yuqoriroq etib belgilashlari ham mumkin.

2-jadval

Reytingga ega bo'lgan korporatsiyalarga talablarning riskka tortilishi²

¹ Bank nazorati bo'yicha Bazil qo'mitasi (Iyun, 2004-yil), 24-bet.

² Bank nazorati bo'yicha Bazil qo'mitasi (Iyun, 2004-yil), 24-bet.





Kredit reytingi	AAA – AA-	A+ — A-	BBB+ - BB-	BB- dan past	yo‘q
Risk darajasi	20%	50%	100%	150%	100%

To‘liq turar joy bilan ta’minlangan kreditlar esa 35% risk darajasiga tortiladi. Biroq, ipotekani moliyalashtirish bilan bog‘liq milliy qonunlardan kelib chiqqan holda nazorat organlari ushbu koeffitsiyentni yuqoriroq qilib belgilashlari mumkin. Tijorat ko‘chmas mulki bilan ta’minlangan ipoteka kreditlari 100%li riskka tortiladi.

Muddati 90 kundan oshgan har qanday kredit³ning ta’minlanmagan qismi maxsus zaxiralarni chiqarib tashlagan holda quyidagicha riskka tortiladi:

- 150%, agar zaxiralar kredit qoldig‘ining 20%idan kam bo‘lsa;
- 100%, agar zaxiralar kredit qoldig‘ining 20%idan kam bo‘lmasa;
- 100%, agar zaxiralar kredit qoldig‘ining 50%idan kam bo‘lmasa; bunda nazorat organlari risk darajasini 50%dan kamroq qilib belgilashlari ham mumkin.

Boshqa barcha aktivlar 100% riskka tortiladi. Ammo, oltin 0%li riskka, olinadigan to‘lov hujjatlari esa 20%li riskka tortiladi.

Kredit riski – tizimli sekyuritizatsiya yondashuvida banklar ushbu operatsiya bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy risklarni qabul qiluvchi investor sifatida ishtirok etishadi. Banklar kapital yetarliligini hisoblashlarida sekyuritizatsiya operatsiyasi riskini 100%li riskka tortishlari lozim. Agar zarar yuzaga kelsa, zarar miqdori proporsional tarzda 50% I darajali kapital tarkibidan, qolgan 50%i esa II darajali kapital tarkibidan chegirilishi lozim.

Bazel qo‘mitasi kredit risklarini boshqarish bo‘yicha bir qator muhim talablarni belgilagan. Ulardan asosiylari quyidagilar:

³ Turar joy bilan ta’minlangan ipoteka kreditlaridan tashqari.





1. Kredit risklarini aniqlash va baholash – bank har bir qarz oluvchining moliyaviy holati, to'lov qobiliyati, pul oqimlari, garov ta'minoti va tarmoq risklarini har tomonlama baholashi lozim.

2. Kredit siyosatini ishlab chiqish – bankda kredit berish, monitoring qilish va undirish jarayonlarini tartibga soluvchi ichki kredit siyosati mavjud bo'lishi shart.

3. Kredit portfelini diversifikatsiya qilish – kreditlarni bir tarmoq, bir hudud yoki bir yirik mijozda to'planib qolishining oldini olish talab etiladi.

4. Ichki reyting (Internal Rating-Based, IRB) tizimini joriy etish – yirik banklar qarz oluvchilarning risk darajasini ichki reyting modellari orqali baholashi mumkin.

5. Kapital yetarliligi – bank kredit risklari darajasiga mos miqdorda kapital saqlashi kerak. Bu Bazel IIIning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

6. Kutilayotgan kredit yo'qotishlarini (Expected Credit Loss – ECL) baholash – kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar oldindan hisoblanishi va zaxiralar shakllantirilishi lozim (IFRS 9 bilan uyg'un).

7. Stress-testlar o'tkazish – iqtisodiy inqiroz, foiz stavkalari yoki valyuta kursining o'zgarishi kabi salbiy ssenariylarda kredit portfeli holati baholanadi.

8. Kreditlarni doimiy monitoring qilish – kredit ajratilgandan keyin ham qarz oluvchining moliyaviy holati muntazam tahlil qilinishi va risklar qayta baholanishi talab etiladi.

9. Yirik risklarni cheklash – bitta qarz oluvchi yoki o'zaro bog'liq qarz oluvchilar guruhiga nisbatan kredit ekspozitsiyasi belgilangan limitlardan oshmasligi lozim.

10. Korporativ boshqaruv va risk-menejment – bank Kuzatuv kengashi va boshqaruvi kredit risklarini boshqarish tizimi samaradorligi uchun mas'ul hisoblanadi, mustaqil risk-menejment va ichki audit faoliyat yuritishi kerak.

3-jadval.

Tijorat banklari kredit qo'yilmalarining tarmoqlar bo'yicha ulushi, mlrd s



Ko'rsatkichlar nomi	01.01.2025 y.		01.01.2026 y.	
	mlrd. so'm	ulushi, foizda	mlrd. so'm	ulushi, foizda
Jami kreditlar	533 121	100%	604 002	100%
Sanoat	153 389	29%	142 724	24%
Qishloq xo'jaligi	50 303	9%	61 055	10%
Qurilish sohasi	12 960	2%	18 889	3%
Savdo va umumiy xizmat	38 130	7%	43 548	7%
Transport va kommunikatsiya	32 808	6%	33 732	6%
Moddiy va texnik ta'minotni rivojlantirish	4 213	0,8%	4 748	0,8%
Uy-joy kommunal xizmati	2 324	0,4%	1 870	0,3%
Jismoniy shaxslar	177 532	33%	220 283	36%
Boshqa sohalar	61 463	12%	77 154	13%

2026 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, tijorat banklarining jami kredit qo'yilmalari 604,0 trln so'mga yetib, 2025 yilga nisbatan 70,9 trln so'mga (13,3%) oshgan. Kreditlarning asosiy qismi sanoat tarmog'iga yo'naltirilgan bo'lsa-da, uning ulushi 29 foizdan 24 foizga kamaygan. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi (9 foizdan 10 foizga), qurilish (2 foizdan 3 foizga) va jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar (33 foizdan 36 foizga) ulushi oshgan.

Mazkur o'zgarishlar banklar kredit portfelining tarmoqlar bo'yicha diversifikatsiyasi kuchayib borayotganini hamda chakana kreditlashning jadal rivojlanayotganini ko'rsatadi. Bu esa kredit risklarini samarali boshqarish va



mijozlarning moliyaviy holatini yanada aniq baholash mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Bazel standartlari tijorat banklarida kredit risklarini boshqarishning xalqaro e'tirof etilgan samarali mexanizmi hisoblanadi. Ayniqsa, Bazel III talablarida nazarda tutilgan kapital yetarliligini kuchaytirish, riskka asoslangan yondashuv, ichki reyting tizimlarini joriy etish, stress-testlar o'tkazish va kutilayotgan kredit yo'qotishlarini baholash banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Tahlillar respublika tijorat banklarida kredit qo'yilmalari hajmi o'sib borayotgani va kredit portfelining tarmoqlar bo'yicha diversifikatsiyasi kuchayganini ko'rsatdi. Bu esa kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari, raqamli texnologiyalar va xalqaro standartlarga asoslangan risk-menejment tizimini keng joriy etish zarurligini tasdiqlaydi. Bazel talablarini milliy bank amaliyotiga to'liq tatbiq etish kredit portfeli sifatini yaxshilash, muammoli kreditlar ulushini kamaytirish va bank tizimining barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Basel Committee on Banking Supervision. *Basel Framework*. Bank for International Settlements, 2024.
2. Basel Committee on Banking Supervision. *International Convergence of Capital Measurement and Capital Standards: A Revised Framework (Basel II)*. Bank for International Settlements, 2006.
3. Basel Committee on Banking Supervision. *Guidelines on Credit Risk and Accounting for Expected Credit Losses*. Bank for International Settlements, 2017.



4. Hull J.C. *Risk Management and Financial Institutions*. 6th ed. John Wiley & Sons, 2022.
5. Rose P.S., Hudgins S.C. *Bank Management & Financial Services*. 11th ed. McGraw-Hill Education, 2022.
6. Mishkin F.S., Eakins S.G. *Financial Markets and Institutions*. 10th ed. Pearson, 2024.
7. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni. – Toshkent.
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *O'zbekiston Respublikasi bank tizimi to'g'risida yillik hisobot*. – Toshkent, 2025.
9. International Monetary Fund. *Global Financial Stability Report*. Washington, DC, 2024.
10. World Bank. *Global Economic Prospects*. Washington, DC, 2024.